



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**08.00.10 – DEMOGRAFIYA. MEHNAT IQTISODIYOTI IXTISOSLIGI
BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Dastur 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti ixtisosligiga kiruvchilar uchun “Demografiya”, “Mehnat iqtisodiyoti”, “Mehnat bozori va bandlik”, “Inson resurslarini boshqarish” va “Inson kapitali iqtisodiyoti” fanlarining asosiy mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Tuzuvchilar:

Arabov N.U.

- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Inson resurslarini boshqarish kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bozorov B.U.

- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Inson resurslarini boshqarish kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Qurbonov S.Q.

- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Inson resurslarini boshqarish kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Dastur Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish institutining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida demografik jarayonlar va mehnat iqtisodiyoti iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri, bandlikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish hamda inson kapitalini rivojlantirishning muhim institutsional asosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamlashtirish, globallashtirish, urbanizatsiya, demografik tarkibning o'zgarishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi va mehnat munosabatlarining transformatsiyalashuvi demografik hamda mehnat-iqtisodiy jarayonlarning mazmuni, shakli va ularni tartibga solish mexanizmlarini tubdan yangilamoqda. Natijada aholining tabiiy va mexanik harakati, mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik, mehnat bozori, mehnat unumdorligi, inson resurslarini boshqarish hamda inson kapitalini rivojlantirish bilan bir qatorda masofaviy bandlik, platforma mehnati, raqamli kompetensiyalar, mehnat migratsiyasi va bilimga asoslangan mehnat faoliyati jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon demografik va mehnat-iqtisodiy munosabatlarni alohida jarayonlar doirasidagina emas, balki aholi takror barpo bo'lishi, mehnat bozori, hududiy rivojlanish, institutsional muhit va inson kapitali bilan uzviy bog'liq murakkab iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etishni talab qiladi.

Demografik jarayonlarning ko'p omilliligi, aholining tabiiy va mexanik harakati, yosh-jins tarkibining o'zgaruvchanligi, mehnat resurslarining miqdoriy va sifat jihatdan shakllanishi hamda ishchi kuchiga talab va taklifning o'zgarishi mazkur ixtisoslikni o'rganishda o'ziga xos nazariy va uslubiy yondashuvlarni taqozo etadi. Mehnat bozorida talabning o'zgaruvchanligi, inson omilining ustuvorligi, kasbiy-malaka nomutanosibligi va bandlik shakllarining diversifikatsiyalashuvi samaradorlikni baholashning an'anaviy mezonlarini kengaytirishni talab qiladi. Shu bois demografiya va mehnat iqtisodiyotida iqtisodiy natijadorlik bilan bir qatorda demografik rivojlanish, iqtisodiy faollik, bandlik, mehnat unumdorligi, mehnat daromadlari, inson kapitali, mehnat migratsiyasi va munosib mehnat ko'rsatkichlarini ham kompleks tahlil qilish zarur.

Mazkur vazifalarni hal etish demografik va mehnat-iqtisodiy jarayonlarni shunchaki tavsiflash bilan cheklanmaydigan, balki sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlaydigan, ishonchli ma'lumotlar asosida gipotezalarni sinovdan o'tkazadigan, tarmoq va hududlar kesimida qiyosiy baholash imkonini beradigan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Demografiya va mehnat iqtisodiyotida aholi soni, tug'ilish, o'lim, migratsiya, mehnat resurslari, bandlik, ishsizlik, mehnat unumdorligi, ish haqi va inson kapitali o'rtasidagi munosabatlarni ekonometrik modellashtirish, prognozlash, panel ma'lumotlar tahlili, indeks usuli, guruhlash, so'rov va tanlanma kuzatuv natijalarini statistik qayta ishlash orqali o'rganish

ilmiy xulosalarning ishonchliligini oshiradi. Shuningdek, raqamli platformalar va katta ma'lumotlar demografik jarayonlar hamda mehnat bozorining real vaqtga yaqin holatini baholash, ishchi kuchi harakatini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning mazmuni va tashkiliy mexanizmlari ham ana shu yangi talablar asosida takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-98-son Farmoni ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, tadqiqot natijadorligini kuchaytirish hamda attestatsiya jarayonlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etishning huquqiy asosini belgilaydi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son qarori esa stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatlar doktoranturaga qabulni ilmiy salohiyat, kasbiy tayyorgarlik va tadqiqotchilik kompetensiyalarini xolis baholash tamoyillari asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 11-avgustdagi 337-son buyrug'i bilan 2027-yil uchun davlat budjeti mablag'lari hisobidan stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul kvotalari tasdiqlangan. Buyruqda qabul kvotasining 60 foizini ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklarga yo'naltirish, qabul jarayonlarini Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi orqali tashkil etish, talabgor hujjatlari va xorijiy til sertifikatlari haqqoniyligini tekshirish, imtihon yoki suhbatlarni video kuzatuv va onlayn translyatsiya ostida o'tkazish kabi shaffoflik va sifatga qaratilgan talablar belgilangan. Shuningdek, 2027-yilda tayanch doktoranturaga qabul qilingan doktorantlar uchun birinchi o'quv yilida sohaviy maxsus fanlar, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va akademik yozish, statistika hamda ma'lumotlar tahlili bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Bu talablar kirish sinovi dasturining mazmuni nazariy bilim bilan cheklanmasdan, da'vogarning metodologik savodxonligi, analitik fikrlashi va mustaqil ilmiy izlanishga tayyorligini ham baholashi lozimligini ko'rsatadi.

08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti ixtisosligi demografik va ijtimoiy-mehnat munosabatlari, aholi takror barpo bo'lishining qonuniyatlari, mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish, mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi, bandlik, mehnat unumdorligi, inson resurslari va

inson kapitalini rivojlantirish hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini o'rganishga yo'naltiriladi. Ixtisoslik doirasida aholining soni, tarkibi va harakati; tug'ilish, o'lim va migratsiya; aholining takror barpo bo'lishi va demografik prognozlash; mehnat resurslari va mehnat salohiyati; ishchi kuchiga talab va taklif; bandlik va ishsizlik; mehnat unumdorligi va mehnat samaradorligi; mehnatga haq to'lash va aholi daromadlari; mehnat migratsiyasi; inson resurslarini boshqarish; inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va undan samarali foydalanish kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlar kompleks tadqiq etiladi.

Dastur mazmuni "Demografiya", "Mehnat iqtisodiyoti", "Mehnat bozori va bandlik", "Inson resurslarini boshqarish", "Inson kapitali iqtisodiyoti" fanlarining asosiy nazariy-uslubiy masalalarini o'zaro uyg'unlashtirish asosida shakllantiriladi. "Demografiya" bloki aholining soni va tarkibi, tabiiy va mexanik harakati, takror barpo bo'lishi, migratsiya, urbanizatsiya hamda demografik prognozlash masalalarini qamrab oladi. "Mehnat iqtisodiyoti" hamda "Mehnat bozori va bandlik" fanlari mehnat resurslarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish, mehnat unumdorligi, ishchi kuchiga talab va taklif, bandlik va ishsizlik hamda mehnat bozori jarayonlarini baholash kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi. "Inson resurslarini boshqarish" bloki inson resurslarini rejalashtirish, shakllantirish va rivojlantirish, xodimlarni baholash, motivatsiyalash va ulardan samarali foydalanishni o'rganishni nazarda tutadi. "Inson kapitali iqtisodiyoti" fani esa inson kapitalining shakllanishi, ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiyalar, bilim, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish, inson kapitalidan foydalanish samaradorligi hamda uning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalalarini qamrab oladi.

Mazkur dastur va baholash mezonlari 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlarining kasbiy va ilmiy tayyorgarligini kompleks baholashga xizmat qiladi. Dasturda nazariy bilim, amaliy tahlil, tadqiqot metodologiyasi va akademik madaniyatning o'zaro birligi ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Uning izchil qo'llanishi demografik va mehnat-iqtisodiy jarayonlarning dolzarb muammolarini chuqur anglaydigan, ishonchli ma'lumotlar bilan ishlay oladigan, xalqaro ilmiy muloqotga kirisha oladigan hamda mamlakat va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga amaliy hissa qo'shadigan yangi avlod tadqiqotchilarini saralash uchun mustahkam metodik asos yaratadi.

Dastur quyida keltiriladigan fanlar bo'yicha mavzular, savollar majmui va baholash mezonlari orqali mazkur maqsad hamda vazifalarni ro'yobga chiqaradi.

Demografiya fani bo'yicha:

Demografiya fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Demografiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi. Demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. Aholi tushunchasi, uning soni, tarkibi, joylashuvi va harakati. Aholining tabiiy va mexanik harakati. Demografik jarayonlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mehnat resurslarini shakllantirish va aholi farovonligini oshirishdagi o'rni. O'zbekistonda demografik rivojlanishni tartibga solishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Demografik siyosatning maqsadi, vazifalari, shakllari va vositalari. Aholining takror barpo bo'lishi, oilani qo'llab-quvvatlash, aholi salomatligini mustahkamlash va migratsiya jarayonlarini tartibga solish. Demografik rivojlanishga oid davlat dasturlari va strategiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Aholining takror barpo bo'lishi va uning asosiy qonuniyatlari. Tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jarayonlari hamda ularni ifodalovchi demografik ko'rsatkichlar. Aholining tabiiy o'sishi. Reproktiv xulq-atvor. Kutilayotgan umr davomiyligi. Aholi takror barpo bo'lishining brutto va netto koeffitsiyentlari. Avlodlar almashinuvi va demografik o'tish jarayonlari. Aholining yosh-jins tarkibi va uning o'zgarish tendensiyalari. Demografik yuklama va demografik qarish. Demografik dividend va undan samarali foydalanish imkoniyatlari. Migratsiyaning mohiyati, turlari va asosiy omillari. Ichki va tashqi migratsiya, mehnat migratsiyasi. Migratsiyaning aholi soni va tarkibi, mehnat resurslari va hududiy rivojlanishga ta'siri. Urbanizatsiya va aholi joylashuvi jarayonlari. Demografik jarayonlarni baholash ko'rsatkichlari va usullari. Tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish va migratsiya koeffitsiyentlari. Aholining yosh-jins tarkibi va demografik yuklamani baholash. Demografik prognozlashning mohiyati va asosiy usullari. Aholi soni va tarkibini prognozlash. Demografik prognozlardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mehnat resurslari va bandlik istiqbollarini belgilashda foydalanish. O'zbekistonda demografik rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari.

Mehnat iqtisodiyoti fani bo'yicha:

Mehnat iqtisodiyoti fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. Mehnat jarayoni va uning tarkibiy elementlari. Mehnat resurslari, ishchi kuchi va mehnat salohiyati tushunchalari. Mehnat resurslarining shakllanishi, tarkibi va ulardan foydalanish. Mehnatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishdagi o'rni. O'zbekistonda mehnat munosabatlarini tartibga solish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Mehnat sohasini davlat tomonidan tartibga solishning shakllari, usullari va vositalari. Ijtimoiy-mehnat munosabatlari va ularning subyektlari. Ijtimoiy sheriklik tizimi. Xodimlar, ish beruvchilar va davlat o'rtasidagi mehnat

munosabatlarini takomillashtirish yoʻnalishlari. Mehnat resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish qonuniyatlari. Iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholi. Mehnat resurslari balansi va uni shakllantirish. Mehnat salohiyatining miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari. Mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi. Mehnatni tashkil etish, mehnat sharoitlari va ish vaqtidan samarali foydalanish. Mehnatni normalashning mohiyati va asosiy usullari. Mehnat unumdorligining iqtisodiy mohiyati va uni ifodalovchi koʻrsatkichlar. Mehnat unumdorligiga taʼsir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy, texnik-texnologik va ijtimoiy omillar. Mehnat unumdorligini oshirish zaxiralari. Raqamlashtirish, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarning mehnat unumdorligiga taʼsiri. Mehnat samaradorligi va uni baholash usullari. Mehnatga haq toʻlashning iqtisodiy mohiyati, tamoyillari va funksiyalari. Nominal va real ish haqi. Mehnatga haq toʻlashning shakllari va tizimlari. Tarif tizimi va uning asosiy elementlari. Mehnatni moddiy va nomoddiy ragʻbatlantirish. Aholining mehnat daromadlari va ularning shakllanish manbalari. Mehnatga haq toʻlash, mehnat unumdorligi va aholi turmush darajasi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik.

Mehnat bozori va bandlik fani boʻyicha fani boʻyicha:

Mehnat bozori va bandlik fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari va asosiy elementlari. Mehnat bozorining subyektlari va funksiyalari. Ishchi kuchiga talab va taklifning shakllanishi. Mehnat bozori konʻyunkturasi va unga taʼsir etuvchi omillar. Mehnat bozorining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishdagi oʻrni. Oʻzbekistonda mehnat bozori va aholi bandligini tartibga solishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari. Bandlik siyosatining maqsadi, vazifalari, shakllari va vositalari. Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari. Faol va passiv bandlik siyosati. Aholini ishga joylashtirish, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini ragʻbatlantirish yoʻnalishlari. Bandlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tamoyillari va asosiy shakllari. Toʻliq, samarali, oqilona, mahsuldor va munosib bandlik. Yollanma bandlik, oʻzini oʻzi band qilish, vaqtinchalik va mavsumiy bandlik. Norasmiy bandlikning shakllanish sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy bandlik, platforma bandligi va yangi mehnat shakllarining rivojlanishi. Ishsizlikning iqtisodiy mohiyati, sabablari va turlari. Friksion, tarkibiy, siklik, mavsumiy va yashirin ishsizlik. Ishsizlik darajasi va uni baholash koʻrsatkichlari. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Yoshlar va xotin-qizlar bandligining oʻziga xos xususiyatlari. Mehnat migratsiyasi, uning shakllari va mehnat bozori rivojlanishiga taʼsiri. Ichki va tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish yoʻnalishlari. Mehnat bozori va bandlikni baholashning asosiy koʻrsatkichlari va usullari. Iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlik darajasini aniqlash. Ishchi kuchiga talab va taklif

o'rtasidagi mutanosiblikni baholash. Mehnat bozorining hududiy va tarmoq xususiyatlari. Kasbiy-malaka nomutanosibli va uni kamaytirish yo'llari. Mehnat bozori monitoringi va prognozlash. Ishchi kuchiga istiqboldagi talab va taklifni aniqlash hamda mehnat bozori rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari.

Inson resurslarini boshqarish fani bo'yicha:

Inson resurslarini boshqarish fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. Inson resurslarini boshqarish tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Personalni boshqarish va inson resurslarini boshqarish tushunchalari. Inson resurslarini boshqarishning tamoyillari, funksiyalari va usullari. Inson resurslarining tashkilot faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni. Inson resurslarini strategik boshqarishning mazmuni va asosiy yo'nalishlari. Tashkilot strategiyasi va inson resurslarini boshqarish strategiyasining o'zaro bog'liqligi. Inson resurslariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va rejalashtirish. Xodimlarni jalb etish, tanlash va joy-joyiga qo'yish. Xodimlarni kasbiy va ijtimoiy moslashtirish. Kadrlar siyosatini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlari. Inson resurslarini rivojlantirishning mohiyati va asosiy yo'nalishlari. Xodimlarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Uzlüksiz kasbiy rivojlanish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish. Xodimlarning kasbiy va lavozim karyerasini boshqarish. Kadrlar zaxirasini shakllantirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarning bilim, malaka va raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish. Xodimlar mehnatini motivatsiyalash va rag'batlantirishning nazariy asoslari. Moddiy va nomoddiy rag'batlantirish shakllari. Mehnat motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Xodimlarning mehnatdan qoniqishi va tashkilotga sodiqligi. Tashkiliy madaniyat va uning inson resurslarini boshqarishdagi o'rni. Yetakchilik, jamoaviy faoliyat va xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini rivojlantirish. Inson resurslarini boshqarish samaradorligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari va usullari. Xodimlar faoliyati natijadorligini baholash. Mehnat unumdorligi, xodimlar aylanishi va inson resurslaridan foydalanish samaradorligi. Xodimlar faoliyatini baholashning zamonaviy usullari va KPI tizimi. Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, HR-analitika va axborot tizimlaridan foydalanish. Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.

Inson kapitali iqtisodiyoti fani bo'yicha:

Inson kapitali iqtisodiyoti fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Inson kapitalining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi. Inson kapitalining tarkibiy qismlari va shakllari. Bilim, ta'lim, kasbiy malaka, tajriba va salomatlikning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni. Inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Inson kapitaliga investitsiyalarning mohiyati, shakllari va manbalari. Ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirishga investitsiyalar. Inson kapitaliga investitsiyalarning individual va ijtimoiy samaradorligi. Uzluksiz ta'lim va kasbiy rivojlanishning inson kapitali sifatini oshirishdagi o'rni. Inson kapitali va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Ta'lim, kasbiy malaka va mehnat tajribasining bandlik hamda mehnat daromadlariga ta'siri. Inson kapitali va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik. Inson kapitalining raqobatbardoshligi. Kasbiy-malaka nomutanosibligi va inson kapitalidan samarali foydalanish. Inson kapitalining migratsiyasi va yuqori malakali ishchi kuchi harakatining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Raqamli bilim va kompetensiyalarni shakllantirish. Texnologik o'zgarishlarning inson kapitaliga qo'yiladigan talablarga ta'siri. Bilim va ko'nikmalarning eskirishi, ularni yangilash va rivojlantirish. Innovatsion faoliyat va inson kapitalining o'zaro bog'liqligi. Inson kapitalining korxonalar, hududlar va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni. Inson kapitalini baholashning asosiy ko'rsatkichlari va usullari. Inson kapitalini baholashda xarajatlar va daromadlar yondashuvlari. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini baholash. Inson kapitali, mehnat daromadlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik. Inson taraqqiyoti va inson kapitalining o'zaro aloqadorligi. O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, undan samarali foydalanish va uning iqtisodiy qaytimini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot: darslik. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
4. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU.
5. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet.
6. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur.
8. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent: Mehnat.
9. Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU.
10. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish: darslik. – Toshkent: O'qituvchi.
11. Zokirova N.Q., Abdurahmonov O.Q. Inson resurslarini boshqarish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya.
12. Abdurahmonov Q.X. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU.
13. Abdurahmonov Q.X. Mehnat bozori nazariyasi va amaliyoti: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU.
14. Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi: monografiya. – Toshkent: Fan.
15. Zokirova N.Q. Ijtimoiy-mehnat munosabatlari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot.
16. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press.
17. Schultz T.W. Investment in Human Capital: The Role of Education and of Research. – New York: Free Press.
18. Mincer J. Schooling, Experience, and Earnings. – New York: Columbia University Press.

19. Borjas G.J. Labor Economics: textbook. – New York: McGraw-Hill Education.
20. Ehrenberg R.G., Smith R.S. Modern Labor Economics: Theory and Public Policy. – New York: Routledge.
21. Armstrong M., Taylor S. Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice. – London: Kogan Page.
22. Dessler G. Human Resource Management. – Pearson Education.
23. Rowland D.T. Demographic Methods and Concepts. – Oxford: Oxford University Press.
24. Weeks J.R. Population: An Introduction to Concepts and Issues. – Boston: Cengage Learning.
25. Preston S.H., Heuveline P., Guillot M. Demography: Measuring and Modeling Population Processes. – Oxford: Blackwell Publishers.
26. Bloom D.E., Canning D., Sevilla J. The Demographic Dividend: A New Perspective on the Economic Consequences of Population Change. – Santa Monica: RAND Corporation.
27. Lee R., Mason A. Population Aging and the Generational Economy: A Global Perspective. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
28. Cahuc P., Carcillo S., Zylberberg A. Labor Economics. – Cambridge: MIT Press.
29. Bratton J., Gold J. Human Resource Management: Theory and Practice. – London: Palgrave Macmillan.
30. Noe R.A., Hollenbeck J.R., Gerhart B., Wright P.M. Human Resource Management: Gaining a Competitive Advantage. – New York: McGraw-Hill Education.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100